

JAHON TILLARIDA YASHIRINGAN JAHON MADANIYATI

Islom Xo'jamqulov Xonimqul o'g'li

O'zDJTU ning "Roman-german
filologiyasi" fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'rganish orqali xalqalarning madaniyatiga kirib borish, asrlar mobaynida shakllangan urf-odatlarni o'rganish mumkinligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: madaniyat, Gyote, urf-odat, Samarcand, maqbara, jahon tillari

"Apple", , "Smartphone", "Marketing", "Notebook", "Planshet", "Sensor", "iPhone", "Brifing", "Training", "Menejment" – bu so'zlarni kundalik hayotimizda turli ommaviy axborot vositalarida, televizion ko'rsatuvlarda va hattoki oddiy muloqot tarzida ham muntazam foydalanishga deyarli barchamiz ko'nikib bo'ldik. Ammo ular aslida qanday ma'no anglatishini barchamiz birdek bilmasak-da, muloqot davomida gap nima haqida ketayotganligini, "iPhone"lar qanday funksiyani bajarishi-yu "training"larda nimalar qilish kerakligi barchamizga ayon.

Yuqorida keltirilgan atamalar ilmiy tilda "Neologizmlar" deb ataladi. Ma'lumki, tillar turli yo'llar bilan o'z qamrovini kengaytirib boradi. O'zbek tili leksikasi bir qancha manba asosida boyishi kuzatiladi. Uni, eng avvalo, ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) ichki imkoniyat;**
- 2) tashqi imkoniyat.**

Til lug'at tarkibining ichki manba asosida boyishi deganda shevalahjachalardan so'z olish, yangi so'zlar yasash asosida boyishi tushuniladi.

Chet tillaridan so'z o'zlashtirish asosida til lug'at tarkibining boyishi tashqi omil asosida boyishi, deyiladi. Bunda o'zbek adabiy tiliga fors-tojik, arab, rus, hozirgi kunda ko'p uchratayotgan ingliz, nemis va boshqa tillardan so'z o'zlashtirishi tushuniladi. O'zbek tiliga boshqa tillardan so'z o'zlashtirish turli davrlarda turlicha bo'lgan. Eng qadimda fors-tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq esa rus tilidan va rus tili orqali Yevropa tillaridan so'z o'zlashtirish faollashgan. Boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish orqali boyish, hozirgi paytda yetakchi o'rinda bormoqda.

Chet el mamlakatlarining ko'plab nufuzli firmalarida, sanoat zonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning Jahon bozorlarida, shuningdek Vatanimiz hududida ham keng miyosda foydalanilayotganligi, ularning jadal ko'rinishda hududlarga





kirib borishi, rivojlangan texnologiyalar bilan birga ularning hayot tarzini o‘zida mujassamlashtirgan tili va madaniyati ham xalqimiz orasiga kirib kelmoqda.

Bularning barchasi Jahon madaniyatining yuqori bosqichlarga chiqayotganligi, iqtisodiyotining yildan yilga yuqori marralarga odimlayotganligidan dalolat beradi.

Bu borada yurtimizda ham ta’lim, iqtisodiyot, sanoat va boshqa sohalarda ko‘plab sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotganligi, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda.

Prezidentimizning “Hokimlar ham chet tilini bilishi kerak” degan so‘zlari bejizga emas, albatta.

Bugungi kunda har bir inson uchun xorijiy tillarni bilish juda muhimdir. Dunyo tobora globallahib borayotgani va ikki tilni bilish shunchaki qiziqish emas, balki zamon talabi bo‘lib bormoqda. Bu borada yuqori metodikaga asoslangan o‘qitish tizimlariga ega Yevropa mamlakatlari yetakchi o‘rinlarda turadi. Germaniyada Gyote (Goethe) institutining “Deutsch Lehren Lernen” yoki qisqacha DLL o‘quv seriyasi Nemis tilini chet tili sifatida va ikkinchi til sifatida nemis tili bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshiruvchi nufuzli loyiha hisoblanadi.

Bundan tashqari Shvetsariyaning 26 hududining barchasida Fransuz, italyan, nemis va reteroman tillari rasmiy til sifatida qo‘llaniladi. E’tiborli jihat shundaki , harakat vositalari belgilari, veb saytlar, qonun, xabar va shu kabi barcha ma’lumotlar mana shu tillarda yoritilishi yo‘lga qo‘yilgan. Albatta, bu orqali Shvetsariya o‘z madaniyati , qadriyatlari, hayot tarzini ko‘plab tillarda namoyon qila oladi.

Umuman olganda barcha xalqning madaniy urf-odatlari , an’analari o‘z tilida yashiringan va boshqa xorijiy tillarni egallash orqali o‘z madaniyatini jahonga tanitishi mumkin.

Yaqinda Buyuk Britaniyaning “The Times” nashri sayohatchilarga Samarkand turizm markaziga borishni tavsiya qildi

The Times Silk Road Samarkand’ni o‘zining “2023 yilda tomosha qilish uchun eng yaxshi uzoq magistralli yo‘nalishlar” to‘plamiga kiritdi.

The Times maqolasida qayd etilishicha, mamlakatning eng jozibali nuqtasi Samarkand va uning “zangori gumbazlari hamda qimmatbaho toshlar qadalgan maqbaralari” bo‘lib qolmoqda.

“Shaharning markaziga yaqin joylashgan Samarkand turizm markazi yuqori darajali mehmonxonalar va gastronomiyani taklif qilmoqda”, - deb ta’kidlanadi maqolada.



,,Uzbekistan

Samarkand's golden days came during the Silk Road era, when Genghis Khan was building a mighty empire. Yet the early 21st century is proving similarly prosperous: following the arrival of high-speed trains connecting to two other ancient, bewitching Uzbek centres, Bukhara and Chiva, its green-domed mosques and jewel-jammed mausoleums have been joined by a new luxury complex. Just outside town, Silk Road Samarkand promises upmarket hotels and gastronomy. Getting to Uzbekistan is also easier now that Qatar Airways offers twice-weekly flights from Doha to Tashkent."

Vatanimiz tarixi haqida bu kabi ma'lumotlarning dunyo nashrlarida chop etilishi, shubhasiz, ko'zni quvontiruvchi voqealardan hisoblanadi. Vatanimiz tarixini aks ettirgan obidalarimizni, xalqimizning asrlar mobaynida saqlanib kelinayotgan buyuk an'analarini dunyoga tanitish uchun hali ko'p va xo'b mehnat talab etiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu kabi muqaddas yo'lning kaliti ham xorijiy tillarni o'qitish va uni amaliyotda qo'llashdir. Xorijiy tillarni o'rganish orqali nafaqat madaniyatni dunyoga tanita olish mumkin, balki inson o'zining hayotga bo'lgan dunyoqarashini tubdan o'zgartira oladi, taffakurini kengaytiradi va bugungi kunda muhim bo'lgan madaniyatlararo orientatsiya shakllanadi. Chet tilini o'rganish ko'proq ochiq fikrlashga undaydi.

Chet tilni o'rganish va mutlaqo yangi madaniyat va dunyoqarashga singib ketish – ochiq fikrlaydigan, tushunadigan, bag'rikeng shaxsga aylanishning eng ishonchli usuli va bu mutlaqo bebahodir. Dunyonи boshqa nuqtayi nazardan ko'rish va ko'zni ochadigan haqiqiy tajribadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Hasanxon Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili"
2. Aspekte neu B2 | mittelstufe Deutsch
3. www.usbekistan-geneva.ch
4. cyberleninka.ru
5. [Goethe.de.](http://Goethe.de)
6. Xushnudbek.uz telegram kanali

